

OILAVIY BOLALAR UYI SHAROITIDA TARBIYALANAYOTGAN BOLALAR XULQ-ATVORIDAGI O'ZIGA XOS O'ZGARISHLARGA PSIXOLOGIK YONDOSHUV

Ergasheva Muhayyo Jo'rayevna

Xalqaro innovatsion universitet Psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14553991>

Annotatsiya. Barchamizga ma'lumki inson dunyoga kelar ekan avvalo oila muhiti ta'siriga tushadi. Ammo yangi tug'ilgan chaqaloqda ota-ona tanlash, oila tanlash imkoniyati berilmaydi.

Inson bolasi individ darajasidan ma'naviy barkamol shaxs darajasiga erishgunga qadar, albatta bolaning kamolatida ota-onaning, u tug'ilgan oilaning o'rni beqiyos. Oila tarkibini tashkil etuvchi shaxslarni o'zaro bir-birlariga bo'lgan munosabatlarni orqali oladigan hissiy psixologik ta'sir oqibatida unda tarbiyalanayotgan bolalar ham o'zlarining tashqi olam va atrof-dagilarga nisbatan munosabatlarini ifodalashni o'rganadilar.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, tarbiya, ijtimoiy munosabat.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К СПЕЦИФИЧЕСКИМ ИЗМЕНЕНИЯМ В ПОВЕДЕНИИ ДЕТЕЙ, ВОСПИТЫВАЮЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ СЕМЕЙНОГО ДЕТСКОГО ДОМА

Аннотация. Все мы знаем, что когда человек приходит в мир, на него в первую очередь влияет семейное окружение. Но новорожденному не дается возможности выбрать родителя, выбрать семью. Роль родителя, семьи, в которой он родился, в созревании ребенка, безусловно, неоценима, пока человеческое дитя не достигнет уровня личности до уровня духовно совершенной личности. В результате эмоционально-психологического воздействия, которое получают личности, входящие в состав семьи, через взаимоотношения друг с другом, воспитывающиеся в ней дети также учатся выражать свое отношение к внешнему миру и окружающим.

Ключевые слова: социальная защита, дети, лишенные родительской опеки, воспитание, социальное отношение.

A PSYCHOLOGICAL APPROACH TO SPECIFIC BEHAVIORAL CHANGES IN CHILDREN RAISED IN A FAMILY ORPHANAGE

Abstract. We all know that when a person comes into the world, he is primarily influenced by his family environment. But the newborn is not given the opportunity to choose a parent, to choose a family. The role of the parent, the family in which he was born, in the maturation of the child is certainly invaluable until the human child reaches the level of personality to the level of a spiritually perfect personality. As a result of the emotional and psychological impact that

individuals who are part of a family receive through their relationships with each other, children raised in it also learn to express their attitude to the outside world and others.

Keywords: social protection, children deprived of parental care, upbringing, social attitude.

KIRISH

Barchamizga ma'lumki inson dunyoga kelar ekan avvalo oila muhiti ta'siriga tushadi.

Ammo yangi tug'ilgan chaqaloqda ota-ona tanlash, oila tanlash imkoniyati berilmaydi.

Inson bolasi individ darajasidan ma'naviy barkamol shaxs darajasiga erishgunga qadar, albatta bolaning kamolatida ota-onaning u tug'ilgan oilaning o'rni beqiyos. Oila tarkibini tashkil etuvchi shaxslarni o'zaro bir-birlariga bo'lgan munosabatlarni orqali oladigan hissiy psixologik ta'sir oqibatida unda tarbiyalanayotgan bolalar ham o'zlarining tashqi olam va atrofdagilarga nisbatan munosabatlarini ifodalashni o'rganadilar. Insoniyat takomillashib rivojlanib borar ekan, insonlarni bir-birlariga bo'lgan munosabatlarida ham yaqqol o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Farzand tarbiyasi va tarbiya natijasida barkamol shaxsni tarbiyalash muommosi butun insoniyatni muommosiga aylangan.

Darhaqiqat tarbiya-ijtimoiy hodisa. U kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan beri mavjud.

Inson yer yuzidagi eng mukammal zot bo'lishi uchun avvalo tarbiyalanishi zarur. Sharq mutafakkirlari asarlarida ham farzand tarbiyasiga bo'lgan e'tibor eng kuchli masalalardan biri sifatida qarashlarga ega. Xususan Abu Lays Samarqandiy "Bo'stonul-orifin" asarida tarbiya va tarbiyalashning ma'nosini ta'riflab "Ey o'g'il farzandlaringni tarbiyalashdan oldin o'zingni tarbiyala" tarbiya ko'rgan ota-ona tashkil etgan oilada tarbiyalanayotgan farzandlar dunyoqarashida ham tarbiyalanganlik darajasi aks etadi.

Ma'lumotlarga ko'ra "Avesto" eramizdan avvalgi VII asrning oxiri va VI asrning boshlarida yaratilgan bo'lib u davrlarda yashagan insonlar dunyoqarashi naqadar kengligini ko'rish mumkin. Eng qadimgi yozma yodgorliklarda ham ta'lim tarbiya masalalariga qanchalik alohida e'tibor bilan qaralganini ko'rish mumkin.

Bizning o'zbek oilalarida bola tarbiyasi nihoyatda muhim ahamiyatga ega masala hisoblanadi. Shu sababli ham tarbiya yondoshuvlari barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir.

Biz bolalarni tarbiyalashda har-xil usul va yondoshuvlardan faol foydalanamiz. Qaysidir oilada zo'rovonlik tarbiya usuli sifatida qaralsa, qaysidir oilada zo'rovonlikka umuman yo'l quyilmaydi. Shaxsni o'rganishning ijtimoiy-psixologik yondoshuvi uni ijtimoiylashuvining bevosita mahsuli sifatida qarab uning ijtimoiy-psixologik tizimini bevosita o'rab turgan ijtimoiy muhit ta'sirida o'rganadi. Inson ijtimoiylashuvi manbalariga quyidagilar kiradi: Bolalik davrida orttirilgan tajriba, Ijtimoiy institutlar, muloqot va hamkorlikdagi faoliyat jarayonidagi odamlarning

ta'siri kabilarni ko'rsatish mumkin. Bu borada bir qancha olimlarning o'ziga xos nuqtai nazarlari ham mavjud. Masalan, K.K. Platonov shaxs tizimida to'rtta asosiy jabhani ajratadi.

Shaxsning yo'nalganligi va munosabatlari tizimi: uning mayllari, xoxish-istaklari, qiziqishlari, layoqati, ideallari, dunyoqarashi, e'tiqodi kabilarni o'z ichiga oladi. Bu tizimdagi xususiyatlar ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, ular insonning jamiyatda yashashi, undan oladigan tarbiya shakllari, mafkuraviy muhit asosida shakllanadi.

Shaxsning individual ijtimoiy tajribasi: bu jabhadagi sifatlar inson hayoti mobaynida orttiradigan bilimlari, malaka, ko'nikmalari asosida namoyon bo'ladi. Bu sifatlar ijtimoiy xarakterli bo'lib, ko'proq ta'lim jarayonida shakllanadi.

Inson psixik jarayonlarining individual xususiyatlari: Xotira, idrok, sezgilar tafakkur, qobiliyatlar kabi bir qarashda tug'ma omillarga bog'liq xususiyatlar inson umri davomida takomillashuvi va uning boshqa ijtimoiy sifatlari ta'sirida individuallik o'ziga xoslik kasb etishi mumkin.

4. Biologik xususiyatlarga bog'liq shaxs sifatlari: Bunga shaxsning tipologik, yoshiga oid, jinsiy xususiyatlari kiradi va u ko'pincha bioijtimoiy omillar sifatida qaraladi.

Bola tarbiyasiga yondoshuvlar bevosita uning psixologik jihatlariga ham alohida e'tibor bilan qarashga majbur bo'lamiz. Bevosita yondoshuvlar o'sib shakllanayotgan bola ongidagi tushuncha va tasavvurlarni hosil qiladi va o'z ichki his-tuyg'ularini ayni vaqtda sodir bo'layotgan voqelik bilan kelishib yashashga o'rgatadi.

Ammo jamiyatning yana shunday og'riqli nuqtasi mavjudki bu ota -ona qaramog'idan mahrum bolalar tarbiyasidir. Muruvvat uylarida tarbiyalanayotgan tarbiyalanuvchilar xulq-atvori, ularda kechayotgan ijtimoiylashuv jarayoni, oilada tarbiyalanayotgan bolalardan keskin farqlanadi. Muruvvat uylarida tarbiyalanayotgan bolalar o'zlarini shu muassasani qachondir tark etishlarini his qilib yashaydilar. Ularda oilada yashamaganliklari uchun oila haqida oilaviy munosabatlar haqidagi tasavvurlarni bo'lmasligi ko'pincha ularning oila qurishlariga ham xalal berishi mumkin.

Muhtaram prezidentimiz tashabbuslari bilan 16.08.2022 yildagi 451-son Hukumat qarori asosida "Oilaviy bolalar uylari to'g'risidagi" Nizom tasdiqlandi. Ushbu Nizom 8-bobdan iborat bo'lib unda ko'rsatilgan talablar asosida, nomzodlar, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilaridan olib tarbiyalash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bevosita guruh xolida faoliyat yuritayotgan shaxslarni hatti-harakatlarini umumlashtirishdan ko'ra, yakka holda o'z xatti-harakatlarini boshqarish osonroq. Jamoaviy fikrlab, hamma bir qarorga kelib, ushbu qarorlarga qo'shib, fikrlashdan ko'ra insonning o'zi mustaqil fikrlashi osonroq. Shu sababli doimiy guruhda shakllanayotgan bolalar, guruh rahbarlari tamonidan quyilgan talablarga va bevosita norasmiy tarzda guruh liderlari tamonidan qo'yilgan talablarga javob berishga majbur bo'ladi.

Ayni vaqtda oilaviy bolalar uyi sharoitida tarbiyalanayotgan 6-sinf o'quvchisi Nazarova Sevaraning quyidagi anketa savollariga bergan javoblarini ko'rishimiz mumkin.

1.Qachondan beri oiladasan ? 2 yil bo'ldi

2.Qaysi joyda yashash senga ma'qul, senda tanlov imkoniyati bor qaytib ketishni xoxlaysanmi? Yo'q.Chunki mehribonlik uyida guruh xolida harakat qilishga majbursiz, ammo guruhning hamma a'zolari ham sizning fikrlaringizga birdek hayrixox bo'lavermaydi.Ko'pincha ba'zi qizlar o'z atrofiga boshqalarni yig'ib oladida,boshqalarga hukm -tazyiq o'tkazishadi.

Oilada esa faqat o'zingizning hatti-harakatlaringizga javob berasiz va qayerda xatô qilayotganingizni yakka xolda tushuntirishadi.Yaqin bir yildan beri xatô qilishdan qo'rqmayapman sababi maslahat olish orqali fikrlarimni mustahkamlab olaman.Hozirda men maktabimizda tashkil etilgan musiqa to'garagiga qatnashyapman.Oilaviy bolalar uyi tarbiyalanuvchilarining oilaga moslashuvi muommolarini og'irlik ko'lamiga ko'ra quyidagi diagrammada aks ettirildi.

Dastlabki oilaviy bolalar uyi
haqidagi tasavvurlarning
shakllanishi

Oilaviy uyning oila sifatida emas
qandaydir muassasa sifatida
qaralishi

Yangi oila muhitiga moslashuv
jarayonida yuzaga keladigan
muommolar

Oilada yashab kelayotgan oila
a'zolari bilan hissiy aloqa
o'rnatishdagi muommolar

Oilaviy bolalar uyi tashkil etgan
ota-onalarning o'z farzandlari va
qabul qilayotgan bolalar o'rtasida
munosabatni to'g'ri yo'lga qo'ya
olishdagi muommolar

Yangi qabul qilingan bolalarda
ota -onaga nisbatan hissiy
munosabatlarning shakllanishi

Har xil tushuncha va dunyo
qarashga ega bolalarning oilaviy bolalar uyi
tashkilotchisi bo'lgan,ota -onalar tarafidan,joriy
qilingan qoidalarni o'zlashtirishidagi
qiyinchiliklarni mavjudligi

Xulosa

Yetim va ota- ona qaramog'isiz qolgan bolalar muommosi 19- asrda ilk bor Pedagogikada ko'tarilgan bo'lib, bunga sabab bunday bolalarda ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishdagi qiyinchiliklar oqibatida yuzaga chiqdi.

Tarbiyaga bo'lgan yondoshuvlar zamonlar osha bolalarga ta'siri doirasida yosh va jinsga qarab, o'zgarib boradi.shu sababli ham tarbiya yondoshuvlari guruhlar individualligidan kelib chiqib belgilanadi. Ayni vaqtda biologic ota-onasi mavjud lekin ular bilan aloqa qilmaydigan bolalarda, ota-ona tushunchasiga nisbatan nafratning paydo bo'lishi ularning ijtimoiylashuvida ko'plab muommolarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Chunki oilada tarbiya topgan bolalar o'z ota-onalaridan otalik,onalik obrazini ko'chirib taqlid orqali o'zida shakllantiradi.

Inson ko'rmagan narsa – buyum yoki obrazlar haqida tasavvur eta olmaydi.Shu sababli ham biz yangi ma'lumotlarni, xotiramizda mavjud obrazlarga bog'lagan xolda yangi obrazni yaratamiz. Obrazning hissiy ta'siri oqibatida inson uni turfa rang va sifatlar bilan boyitadi. Oilada tug'ilib, voyaga yetayotgan bolalar, ota – onasi tarafidan berilayotgan hissiy ta'sir natijasida mehr-muhabbatni his qilishadi. Bu tuyg'u haqida bilishadi.O'zlariga yaqin insonlarga ular ham mehr-muhabbatlarini, ko'rganlaridek qaytarishga harakat yuzaga keladi.

Asosan muassasalarda tarbiyalanayotgan bolalarda ushbu muassasadan voyaga yetgach ketishlarini biladilar. Oiladagi bolalar esa hech qachon oilasini tashlab ketishni o'ylamaydilar. Har doim o'ziga tarbiya bergan ota-onalari oldida o'zlarini qarzidor his qiladilar. Xuddi shu his bir oila a'zolarini qayerda bo'lishlaridan qat'iy nazar birlashishlariga sabab bo'ladi. Oilaviy bolalar uylarini tashkil etilishi, bu oilada tarbiyalanishni xoxlagan bolalarga,oila qurishda amal qilinishi lozim bo'lgan dastlabki tasavvurlarni shakllantiradi.Bolalarda hissiy to'yinish va oilada har bir bolaga berilgan alohida vazifa natijasida,o'z shaxsiyatiga nisbatan baho bera olish qobiliyatini shakllanishiga sabab bo'ladi.

REFERENCES

1. Абдурахмонова, М. М. (2020). Ижтимоий иш касбий фаолиятининг мактабга йўналтирилган соҳасини ривожланишида жаҳон амалиёти тажрибалари. Журнал Социальных Исследований, 3(6).
2. Абдурахмонова, М. М. (2021). ТЕОРИИ МЕЖСЕКТОРАЛЬНЫХ ПОДХОДОВ К ЗАЩИТЕ ДЕТЕЙ. Человек. Наука. Социум, (2), 62-74.
3. Абдурахмонова, М. М. (2021). НЕОБХОДИМОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ ДЛЯ ПРИНЯТИЯ ЭФФЕКТИВНЫХ РЕШЕНИЙ В ШКОЛЕ. Человек. Наука. Социум, (1), 33-46.

4. Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). УЗБЕКСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ МАЛОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА. Ученый XXI века, 62.
5. Абдурахмонова, М. М., & Содикова, Д. Ш. (2020). EFFICIENCY OF MANAGEMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN THE PREPARATION OF QUALIFIED PERSONNEL. Человек. Наука. Социум, (2), 8-27.
6. Абдурахмонова, М. М. (2021). МАКТАБЛАРДА САМАРАЛИ ҚАРОР ҚАБУЛ ҚИЛИШ УЧУН ЖАМОАТЧИЛИК ФИКРИНИ ЎРГАНИШ ЗАРУРИЯТИ. Журнал Социальных Исследований, (SPECIAL ISSUE 1).
7. Абдурахмонова, М. М., & Орипов, А. (2019). Основные направления и приоритеты научной актуализации информационной парадигмы гражданского общества. Мировая наука, (12), 56-59.
8. Абдурахмонова, М. М., & Мирзажонов, Ж. (2020). Роль конституции в построении правового государства и гражданского общества. Теория и практика современной науки, (3), 9-11.
9. Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). UZBEK MODEL OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT. Учёный XXI века, (3-4 (16)), 58-63.
10. Madaliyeva, F., & Abduraxmonova, M. (2021). О ‘ZBEKISTONDA MAKTAB BITIRUVCHI О ‘QUVCHILARINI KASB-HUNAR BILAN TA’MINLASHDA IJTIMOYIY ISH AMALIYOTI. Студенческий вестник, (8-3), 94-95.
11. Abduraxmonova, M., & A'zamova, Z. (2021). О’ZBEKISTONDA PENSIYA TA’MINOTI TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI. Интернаука, (7-2), 91-93.
12. Sharipova, K., & Abduraxmonova, M. (2021). О’ZBEKISTON MAKTABLARIDA MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHISI BO’LGAN O’QUVCHILAR BILAN IJTIMOYIY ISH AMALIYOTI ISTIQBOLLARI. Студенческий вестник, (8-3), 82-83.
13. Abdurakhmonova, M., Karimova, G., & Karimova, M. (2021). ROLE OF ETHICAL CULTURE IN PREVENTING VIOLENCE AMONG SPUPILS. Интернаука, (11-2), 50-51.
14. Abdurakhmonova, M. M., Akramov, D. O., & Egamberdiev, F. A. (2020). Conceptual aspects of the development of social work in the new social protection system of Uzbekistan. Chief Editor, (5), 8.
15. Abdurakhmonova, M. M. ugli Mirzayev, MA, Karimov, UU, & Karimova, GY (2021).